

## **Jahon harbiy san'at tarixida Amir Temurning o'rni**

**Jizzax davlat pedagogika  
Institute 4-bosqich talabasi  
Anorboyev Bunyod  
Ilmiy rahbar- t.f.n. A. Pardayev**

### **Annotatsiya:**

maqolada jahon harbiy san'atida chuqur iz qoldirgan Amir Temurning harbiy sohada olib siyosiy hamda harbiy faoliyati bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Temuriylar saltanati, yasol, jang san'ati, "Zafarnoma", "Temur tuzuklari", piyoda askarlar, "Shaxmat" o'yini.

### **Аннотация:**

В статье описывается политическая и военная деятельность Амира Темура, оставившего глубокий след в мировых боевых искусствах.

**Ключевые слова:** царство Тимуридов, ясол, боевые искусства, «Зафарнома», «Правила Темура», пехота, игра «Шахматы».

### **Annotation:**

The article describes the political and military activities of Amir Temur in the military field, which left a deep mark on world martial arts.

**Keywords:** Timurid kingdom, yasol, martial arts, "Zafarnoma", "Temur's rules", infantry, "Chess" game.

Amir Temur o'zining ulkan saltanat barpo etishdek ulkan maqsadni ro'yobga chiqarish maqsadida Hindiston, Xuroson, Eron, Oltin O'rda, Mug'uliston va boshqa ko'plab o'lkalarga qarshi muvofaqiyatli yurishlarni amalga oshirdi. Ushbu keng ko'lamli yurishlar davomida Sohibqiron tomonidan bir-biridan mukammal bo'lgan turli jang usullaridan foydalaniladi. Amir Temur tomonidan janglarda qo'llanilgan harbiy taktikalar tufayli qo'shinda kam yoqotishlar bilan birin-ketin ko'plab bo'ysunmas qal'alar zabt etiladi. Shu boisdan, harb tarixi Temurbekni jahonning eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida haqli ravishda tan oladi.

Amir Temur taxtga o'tirish boisi o'laroq ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotda sodir bo'lgan ijobiy o'zgarishlar o'z ifodasini harb ishida va harbiy san'atda ham

namoyon etadi. Uning harbiy istedodi asosan ikki yo'nalishda: mohir harbiy tashkilotchi va atoqli sarkarda tarzida yorqin namoyon bo'ladi<sup>1</sup>. Buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi sifatida Amir Temur o'ta intizomli armiya tuzishga, muhoraba chog'iga qo'shin qismlarini san'atkorona boshqarishga, jang taqdiri hal bo'ladigan joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'oyalarni tadbirkorlik bilan bosib o'tishga, armiyadagi jangovar ruhni kerakli darajada ushlab turishga muyassar bo'ladi.<sup>2</sup>

Amir Temur tuzgan qo'shin ko'plab mamlakatlarni zabt etishda son jihatdan aniq va puxta tashkil etilganligi bilan o'z davrining ko'plab qo'shinlardan ustun turgan. Qo'shinning jangovar holatini belgilab berish va tartibga solish – yasol deb yuritilgan. Sohibqiron tomonidan yasol jangdan-jangga takomillashtirib borilgan, armiya o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan qurollangan, aynan bir turdagi qurol-yarog', aslaha-anjom bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyim boshi, tutgan bayrog'i yoki tug'i orqali ham farqlangan.<sup>3</sup>

Amir Temurning harbiy to'qnashuvlarda qo'llagan jang usuli o'z davrining buyuk imperiyalari Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar, Saljuqiylar, Chingiziylar qo'shini jangovar tartibidan farqli bo'lib, yetti qism-qo'lga ajratilgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida Sohibqiron harbiy jang usuli yetti qism-qo'l tuzilishi to'g'risida to'liq ma'lumot berilgan. Sohibqiron o'z qo'shini qanotlarini jang chog'ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism-kunbul yoki kumbul, ba'zi manbalarda qanbulning joriy etilishi-harbiy san'at rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan biri bo'ldi. Bunday jang usulidan faqat besh asr o'tib, XIX asrning atoqli lashkarboshisi Napoleon Bonapart armiyasining jangovor tartibida qo'shin qanotlarini himoyalovchi qism mavjud bo'lgan.<sup>4</sup>

Amir Temur harbiy janglarda tajribali va iste'dodli lashkarboshilar tayinlashga alohida e'tibor bergan. Ushbu jarayonda asosan harbiy san'atning o'ziga

---

<sup>1</sup> I. M. Muminov "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli". Toshkent, Fan, 1968.

<sup>2</sup> H. Dadaboyev "Amir Temurning harbiy mahorati". Toshkent, Yozuvchi, 1996, 8-bet.

<sup>3</sup> E. A. Razin. Istoriya voennogo iskustva. Moskva, 1957, 234-bet.

<sup>4</sup> H. Dadaboyev "Amir Temurning harbiy mahorati". Toshkent, Yozuvchi, 1996, 10-bet.

xos sir-asrorlaridan to'la voqif bo'lgan, dushman saflarini parokanda qilish yo'l-yo'riqlarini yahshi egallagan, mushkul vaziyatlarda dadil va tez harakat qiladigan, hech qanday to'siqlardan tap tortmaydigan, qo'shin safida sodir bo'lishi ehtimolidan holi topilmagan tartibsizliklarni o'z vaqtida bartaraf eta oladigan iste'dod egalarinigina Temurbek tomonidan lashkarboshilikka qo'yilgan. Sohibqiron tomonidan amalga oshirilgan ushbu tadbir orqali harbiy jang usullaridan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lishi ta'minlangan. Jumladan, Amir Temur tomonidan Xuroson, Kavkaz, Eron va Hindistondagi harbiy yurishlari davomida qal'alarni egallashda iste'dodli lashkarboshilar tomonidan ko'plab jasoratlar ko'rsatilgan.

Amir Temur o'z qo'shini va sipohiylarni boshqarish, yangi harbiy yurish usullari takomillashtirish borasida doimiy tarzda fikr yuritgan. Jumladan, "Temur tuzuklari"da shunday keltiriladi: "Kunduzlari tajribali va dono kishilar bilan turli mamlakatlarni zabt etish shatranji ustida bosh qotirdim. Kechalari bo'lsa to'shagimda yonboshlab olib, mamlakat ishlarini qanday yurgizish kerakligi haqida o'yladim va ularni bajarish vositalarini o'zimcha tasavvur qilib ko'rdim. O'zga mamlakatlarni zabt etish yo'llarini o'z ko'nglimda chamalab, qay tarzda hujum qilib, qanday chekinish mumkinligini belgilar edim. Sipohiylarim bilan qanday muomala qilishim to'g'risida fikr yurguzib, qaysi birini qanday tarbiyat qilishim kerak, qaysi ishni qay biriga topshirsam, xat6 qilmagan bo'laman deb, har ishning oldi-ketini o'ylar edim".<sup>5</sup> Yana shuni qo'shimcha qilishimiz joizki Sohibqiron shunday buyuk sarkarda bo'lishiga qaramay hech qachon manmanlikka berilmaganligini yuqoridagi so'zlaridan ham ko'rishimiz mumkin. U nafaqat yangidan-yangi jang usullarini qo'llash bilan bir qatorda, jangni boy berish holatlarida qanday tarzda chekinish va yana jangga kirish kabi holatlarnida doimiy tarzda o'ylab ko'rib ish tutgan.

Amir Temur yirik janglar bilan bir qatorda kichik harbiy to'qnashuvlarga ham katta e'tibor qaratadi. Uning buyrug'iga ko'ra jang maydonida g'animlar qo'shini soni o'n ikki mingdan kam otliqdan iborat bo'lganda, lashkarlarga amir ul-umaro qo'mondonlik qilgan. Shuningdek, jangda aymoq va tumanlardan o'n ikki

---

<sup>5</sup> Ma'sul muharrir J. Rahimov "Temur tuzuklari". Toshkent. Shodlik. 2020, 124-bet.

ming otliq unga hamrohlik qilgan. Amir ul-umaroga mingboshilar, yuzboshilar va o'nboshilar hamrohlik qilib, dushman qo'shinlariga bir kunlik masofa qolganda Sohibqironga xabar berishgan. Ushbu harbiy qo'shinning oz sonli bo'lishiga qaramay buyuk sarkardaning taktik jihatdan qo'shinni to'g'ri joylashtirishi janglarda g'alabani ta'minlovchi asosiy omil bo'lgan. Jumladan, "Temur tuzuklari"da shunday keltiriladi: "Amr qildimki, o'shal o'n ikki ming otliq askarni to'qqiz qismga bo'lsinlar, ushbu tartibda: qo'lda bir favj, barong'orda uch favj, javong'orda uch favj, hirovulda-bir favj va qorovulda-bir favj tursin. Barong'orning o'zi hirovul, chopovul va shiqovuldan iborat bulsin. Shunga o'xshash, javong'or ham hirovul, chopovul va shiqovuldan iborat bo'lsin".<sup>6</sup> Amir Temur qo'shinning tuzulishi bilan bir qatorda, uning joylashuviga ham alohida e'tibor qaratgan. Sohibqiron Amir ul-umaroga urush maydonini tanlashda to'rt holatini nazarda tutishi lozimligini amr etadi. Bular:

Birinchisi- u yerning suvga uzoq-yaqinligi.

Ikkinchisi-askar saqlaydigan yerning xavfsizligi.

Uchinchisi-g'anim lashkari turgan yerdan teparoqqa joylashishi va oftobga ro'baro' bo'lmasligi, toki quyosh shu'lasi sipohiylar ko'zini qamashtirmasin.

To'rtinchisi-urush maydoni oldi ochiq, keng joy bo'lishi lozim.

Yana Sohibqiron amr etadiki, urushdan bir kun oldin lashkarni safga tizsinlar va tuzukka muvofiq uni favjlarga ajratib, dushman tomonga qarab yursinlar. Lashkar otlarining boshi ko'zlangan yo'nalishga qaratilsin va yurar yo'ldan chap yoki o'ng yoqqa burilmasin. Yana buyuradiki," sipohiylar ko'zi g'anim lashkariga tushishi hamono, baland ovoz bilan "Alloh-u akbar!" deb takbir aytsinlar va suron solib, dushman cheriki ustiga bostirib borsinlar" deb ko'rsatma beradi.

O'sha davrlarda deyarli barcha xalqlar urush vaqtida tartibli saflarda tizilmasdan, to'da-to'da bo'lib, taktik mulohazalarsiz jang qiladigan, o'z jasurligiga berilib ketib, dushmanga tartibsiz ravishda tashlanadigan bir vaqtda Amir Temur lashkarlari tartibli saflarga tizilgan va bir necha qismlardan iborat bo'lar, hamda ular jangga birin-ketin kiritilib, nihoyat, so'nggi hujumlar bilan dushman

---

<sup>6</sup> Ma'sul muharrir J. Rahimov "Temur tuzuklari". Toshkent. Shodlik. 2020, 134-135-bet.

kuchsizlantirilib, holdan toydirilgach, eng saralangan jangchilardan tuzilgan, har doim g'alabani ta'minlashi mumkin bo'lgan, kuchli va bardam rezerv janggi kiritilardi.<sup>7</sup>

Xulosa tarzida shuni yozishimiz mumkinki, Sohibqiron jahonda birinchi bo'lib raqibga mos tarzda baho berib, o'n ikki ming, qirq ming va qirq mingdan ziyod raqibga mos tarzda jang usullarini joriy etdi. Buyuk sarkarda jang usullarini munosib tarzda amalga oshirish uchun lashkarboshilar bilan munosabat masalalariga ham katta e'tibor qaratishi ham qo'shinning janglarda g'alabalarini ta'minlagan. Amir Temurning asosiy qo'shin yon qanotlarini himoya qilish uslubi jahon jang san'ati rivoji qo'shgan ulkan hissalaridan biri bo'ldi. Amir Temur o'z davrining buyuk sarkardasi hisoblanib, o'sha davrgacha hech qaysi qo'shinlar va harbiy to'qnashuvlarda qo'llanilmagan yangi tartib va usullarni joriy etgan. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari o'z armiyalarini tarbiyalash jarayonida Sohibqironning harbiy jang usullaridan foydalanishi ham uning buyuk sarkarda sifatida mustahkam qo'shin bilan bir qatorda, harbiy janglarga joriy etgan tartib va taktikalarining mukammal tuzilganidan dalolat beradi.

---

<sup>7</sup> M.Ivanin, "Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur". Fan, 1994, 189-bet.